

## Turkumlararo Transpozitsiya Hodisasining Namoyon Bo'lishi (Nasriy Matnlar Tarkibidagi Misollar Tahlili)

*Mamarasulova Iroda<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot ishimizda turkumlararo transpozitsiya hodisasining vujudga kelishining tahlili keltirilgan bo'lib, mustaqil va yordamchi turkumga oid birliklarning bir-biriga ko'chishi haqidagi ma'lumotlar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** transpozitsiya, ko'chish, so'z turkumlari, qani, quchoq kabilar.

**Kirish.** Bizga ma'lumki, transpozitsiya deganda, ma'lum bir turkumga mansub so'zning o'ziga xos bo'lgan atash, vazifa semasini kuchsizlantirib, boshqa so'z turkumiga xos semantik va grammatik belgiga ega bo'lishi tushuniladi.

Transpozitsiya hodisasi tilshunoslikning muhim mavzularidan biri bo'lib, so'z turkumlarining bir turkumdan ikkinchi turkumga o'tish jarayonini o'rganadi. Bu jarayon til tizimining dinamikligini va o'zgaruvchanligini ko'rsatadi. Transpozitsiya, asosan, semantik va sintaktik o'zgarishlarni o'z ichiga oladi, bu esa tilning boyligi va ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Nazariy jihatdan, transpozitsiya so'zlarning ma'no va vazifalarini o'zgarishiga asoslanadi, bu esa nutqiy ko'chma ma'no va mutlaq ko'chish kabi hodisalarga olib keladi.

- Sayfullayeva R. va boshqalar (2009) hozirgi o'zbek adabiy tilida turkumlararo transpozitsiya hodisasini tahlil qilib, bu hodisaning semantik va grammatik jihatlarini o'rganan.
- Baxtiyor Mengliyev va O'ral Xoliyorov (2008) o'zbek tilining umumiy qoidalari va grammatik xususiyatlarini ko'rsatib, transpozitsiya hodisasining amaliy misollarini taqdim etgan.
- O'zbek tilining etimologik lug'ati (2000) so'zlarning kelib chiqishi va o'zgarishi haqida batafsil ma'lumot beradi, bu esa turkumlararo transpozitsiyaning etimologik asoslarini tushunishga yordam beradi.

Oldingi tadqiqotlarda turkumlararo transpozitsiya hodisasi keng o'rganilgan bo'lsa-da, ushbu tadqiqotlar asosan umumiy grammatik va semantik jihatlariga qaratilgan. Lekin badiiy matnlar tahlili, ayniqsa, nasriy matnlarda turkumlararo transpozitsiyaning namoyon bo'lishi yetarlicha o'rganilmagan. Bu esa turkumlararo transpozitsiya hodisasining badiiy matnlar kontekstida qanday ko'rinishlari va uning stilistik ahamiyatini chuqurroq o'rganish zaruratini ko'rsatadi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi turkumlararo transpozitsiya hodisasining badiiy matnlarda qanday namoyon bo'lishini tahlil qilish va uning stilistik ahamiyatini aniqlashdir. Shuningdek, transpozitsiya hodisasining o'zbek tili tizimida qanday ro'l o'ynashini va uning grammatik va semantik jihatlarini aniqlash ham maqsad qilib qo'yilgan.

Ushbu tadqiqot turkumlararo transpozitsiya hodisasining badiiy matnlarda qanday namoyon bo'lishini chuqur tahlil qilish orqali yangi ma'lumotlarni taqdim etadi. Xususan, so'zlarning semantik va grammatik o'zgarishlarini o'rganish orqali badiiy matnlarning stilistik xususiyatlari va nutqiy uslublarni yanada kengroq tushunish mumkin bo'ladi.

Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, o'zbek tilidagi badiiy matnlarda turkumlararo transpozitsiya hodisasining turli ko'rinishlari aniqlanadi va bu hodisaning stilistik ahamiyati aniqlanadi. Tadqiqot

<sup>1</sup> O'zbekiston -Finlandiya pedagogika instituti Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi  
3- kurs talabasi



natijalari o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi uchun muhim bo'lib, kelajakdagi tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin

O'zbek tilida boshqa turkumga ko'chgan yoki ko'chishga shay turgan so'z talay bo'lib, bu so'zning qaysi turkumga kirishini aniqlashda bir qancha murakkabliklarga duch keliniladi.

Ular: a) vaqtincha boshqa turkum vazifasini bajarish;

b) mutlaqo boshqa turkumga ko'chish kabilar bilan farqlanadi.

Nutqiy ko'chishda nutqiy ko'chma ma'no ifodalanadi. Masalan, Birni ko'rib fikr qil, birni ko'rib shukur qil gapida son turkumiga mansub bir so'zi vaqtincha ot turkumi vazifasida kelmoqda va bu o'tkinchi, nutqiy hodisa hisoblanadi.

Mutlaq ko'chishda so'z bir turkumdan boshqa turkumga butunlay o'tib ketadi. Butunlay ko'chish deyarli barcha mustaqil va yordamchi so'z doirasida ham kuzatiladi.

Masalan, Qani, yigitlar, qo'zg'aldik! Bekorchidan xudo bezor... Omin, orolimiz suvga to'lsin, suvlari baliqqa to'lsin, Ollohi akbar!

Badiiy matnda keltirilgan ushbu misrada „qani“ so'zi modal so'z vazifasini bajarib kelmoqda. Garchi bu misolda qani so'zi yaqqol modallik xususiyatini namoyon etmayotgan bo'lsa-da, kirish so'z vazifasini bajarib kelyapti. Shu maqsadda etimologik lug'atda keltirilgan izohni ko'rib chiqamiz: qani qayerdaligini so'rash olmoshi hisoblanadi. Masalan, Suv deysiz, suvning o'zi qani?! Suv- bo'ladi! Suv- keladi!.. Kelmaydigan bo'lsa nega qayiq yasab o'tiribsan, xo'sh? Ol ko'tar! Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni bildirgan bu so'z asli qani tarzida talaffuz qilingan ( Devon, 3- tom. 256; DC, 418) ; keyinchalik o'zbek tilida qattiq a unlisi yumshoq a unlisiga almashgan, i unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan; qani. Bu so'z asli qayu so'zining tovush jihatidan o'zgarishi va yangi ma'no bildirishi yo'li bilan yuzaga kelgan: 1) y undoshi n undoshiga , u unlisi i unlisiga almashgan: qayu > qanu > qani 2) „qaysi“ ma'nosi asosida qaysi yerda ma'nosi yuzaga kelgan. Bu so'z qadimgi turkiy tilda kishi yoki narsaning qayerdaligini so'rash olmoshi qani so'zidan eski o'zbek tilida ma'lum sintaktik vazifaga birlashtirilish oqibatida yuzaga kelgan ma'no taraqqiyoti yo'li bilan o'sib chiqqan: so'roq olmoshi > ta'kid so'zi. Demak bundan bilib olishimiz mumkinki, qani so'zi dastlab so'roq olmoshi yoki undov gapda afsus, taajjub kabi ma'nolarni bildirgan.

Keyinchalik ma'lum bir o'zgarish oqibatida uning modallik xususiyati ham vujudga kelgan deyishimiz mumkin.

Chol qirg'oqdan ancha olisga ketishni avvaldanoq o'ylab qo'ygan edi; u yerning anvoyi bo'yini ortda qoldirib, to'g'ri salqin tonggi okean quchog'i sari eshkak ura boshladi.

Bu misolda keltirilgan quchoq so'zi aslida ot so'z turkumiga mansub so'z bo'lib, etimologik jihatdan qaraydigan bo'lsak, u ikki qo'l bilan qamrab o'z bag'riga bosish holati hisoblanadi. Masalan,

Bizning yerda bo'lib turgan tubanliklar, xo'rliklar

So'yla yulduz, sening dag'i, quchog'ingda bo'lurmi? Bu ot qadimgi turkiy tilda ikki qo'l bilan bag'irga bos ma'nosini anglatuvchi quch fe'lidan - ( a)q qo'shimchasi bilan yasalgan, keyinchalik o'zbek tilida q undoshi oldidagi qattiq a unlisi yumshoq a unlisiga almashgan: quch+aq= quchoq .

Mahmud Qoshg'ariy lug'atida bu so'zning ikki qo'l bilan qamrab olishga teng miqdor ma'nosi aks ettirilgan. Lekin uni bu yerda ko'makchi turkumiga ko'chgan deyishimiz mumkin. Ijodkorning badiiy mahorati bunday badiiy topilmalarni matnda aks ettira olishi ham turkumlararo ko'chish va buning natijasida muayyan tilning o'z ichki imkoniyati asosida boyishi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Transpozitsiyaning Turlari

Vaqtincha Ko'chish



Vaqtincha ko'chishda nutqiy ko'chma ma'no ifodalanadi. Masalan, "Birni ko'rib fikr qil, birni ko'rib shukr qil" gapida son turkumiga mansub "bir" so'zi vaqtincha ot turkumi vazifasida kelmoqda va bu o'tkinchi nutqiy hodisa hisoblanadi.

### Mutlaq Ko'chish

Mutlaq ko'chishda so'z bir turkumdan boshqa turkumga butunlay o'tib ketadi. Butunlay ko'chish deyarli barcha mustaqil va yordamchi so'z doirasida ham kuzatiladi. Masalan, "Qani yigitlar qo'zg'aldik! Bekorchidan xudo bezor..." misolida "qani" so'zi modal so'z vazifasini bajarib kelmoqda.

### Misollar va Tahlil

#### *Qani*

"Qani" so'zi modal so'z vazifasini bajarib kelmoqda. Etimologik lug'atda "qani" so'zining qayerdaligini so'rash olmoshi hisoblanadi. Masalan, "Suv deysiz suvning o'zi qani?!". Bu so'z asli "qayu" so'zining tovush jihatidan o'zgarishi va yangi ma'no bildirishi yo'li bilan yuzaga kelgan: "qayu > qanu > qani". Bu so'z qadimgi turkiy tilda kishi yoki narsaning qayerdaligini so'rash olmoshi hisoblanadi va eski o'zbek tilida ma'lum sintaktik vazifaga birlashtirilish oqibatida yuzaga kelgan.

#### *Quchoqlash*

"Quchoqlash" so'zi aslida ot so'z turkumiga mansub bo'lib, etimologik jihatdan qaraydigan bo'lsak, u ikki qo'l bilan qamrab o'z bag'riga bosish holatini bildiradi. Masalan, "Bizning yerda bo'lib turgan tubanliklar xo'rliklar, So'yla yulduz sening dag'i quchog'ingda bo'lurmi?". Bu ot qadimgi turkiy tilda "quch" fe'lidan "-(a)q" qo'shimchasi bilan yasalgan: "quch+aq=quchoq".

### Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ma'lum bir turkumga mansub so'zning atash ma'nosi o'zgarish va ehtiyojlar natijasida kuchsizlanib, boshqa turkumga xos ma'noviy va sintaktik belgiga ega bo'lib, shu so'z turkumiga ko'chadi. Demak, so'z turkumlari orasida muntazam aloqa mavjud bo'lib, bu aloqa til tizimi doimiy o'zgarishda, taraqqiyotda ekanligidan dalolat beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sayfullayeva R va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili.- T. : Fan va texnologiyalar. 2009.- B. 183-184.
2. Baxtiyor Mengliyev, O'ral Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma.- T. : O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi „Fan“ nashriyoti. 2008.- B. 127-130.
3. O'zbek tilining etimologik lug'ati ( 1-jild ).- Toshkent: Universitet. 2000, -B. 521-522-581.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati,- Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2006-2008. 2- tom.- B. 549-628.
5. Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov. Adabiyot, 7-sinf, - Toshkent.: Respublika ta'lim markazi, 2022. 45- bet.
6. Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov. Adabiyot, 10-sinf, -Toshkent.: Respublika ta'lim markazi, 2022. 126- 129- 229- betlar.

